

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**"SHARQ MUMTOZ POETIKASI
MUAMMOLARI:
NAVOIY VA RUMIY"**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled*

**"ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL
POETICS: NAVO'I AND RUMI"**

April 22, 2025

Toshkent
"Nurafshon business"
2025

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

"Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

*Mas'ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, akademik*

Tahrir hay'ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O'zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo'raqulov (O'zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O'zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxon Ismanova (Qirg'iziston), Makpal Orazbek (Qozog'iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Shafiqqa Yorqin (Afg'oniston), Amir Ne'mati Lima'i (Eron), Nafas Shodmonov (O'zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O'zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston).

Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalari ni ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan "Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy" mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko'lami, tipologik talqinlari, tahviliy xulosalarini bilan o'ziga xosdir. To'plam to'rt bo'limdan tashkil topgan. Har bir bo'lim o'zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o'zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kash etadi.

Ilmiy to'plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug'ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljalangan.

To'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig'ilishi qaroriga asosan nashrha tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.**

UDC 845.711.05

KBK 133.585.3

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on the topic “Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi” – Tashkent: Nurafshon Business, 2025. – 1016 pages.

ISBN 978-9910-8871-6-1

*Editor-in-Chief:
Shuhrat Sirojiddinov,
Doctor of Philological Sciences, Academician*

Editorial Board:

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Turkiye), Uzoq Jo'raqulov (Uzbekistan), Agnieszka Wojta (Germany), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makpal Orazbek (Kazakhstan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqa Yorqin (Afghanistan), Amir Ne'mati Lima'i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (Uzbekistan), Gulnoz Khaliliyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

The present conference proceedings, titled “Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi” focus on the scholarly and theoretical exploration of the artistic, historical, and typological dimensions of the works of two eminent figures of Eastern-Islamic culture – Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. With its broad geographical scope, comparative perspectives, and analytical insights, the collection offers a unique contribution to the field. The volume is organized into four sections. Each section explores a distinct scholarly issue while also highlighting the shared poetic features and mutual influences in the works of Navoi and Rumi. The discussions extend to themes in world literature, comparative literary studies, historical and theoretical poetics, and contemporary literary discourse, contributing to both intellectual and aesthetic understanding.

This collection is intended for doctoral and postgraduate researchers, as well as master's and undergraduate students in fields such as world literature, literary theory, literary criticism, comparative literature, translation theory, and translation studies. It may also be of interest to anyone engaged in the study of artistic literature.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on April 3, 2025.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

MUNDARIJA

- | | | |
|----|-----------------------------------------------------------------------------|----|
| 1. | <i>Shuhrat SIROJIDDINOV.
IKKI BUYUK – IKKI TURK (Kirishso'z ornida)</i> | 15 |
|----|-----------------------------------------------------------------------------|----|

I SHO'BA NAVOIY VA RUMIY: BADIYAT VA TIPOLOGIYA

- | | | |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 2. | <i>Узоқ ЖҮРАҚУЛОВ.
МУМТОЗ ПОЭТИКАДА “ИДЕАЛ ОБРАЗ” МУАММОСИ</i> | 20 |
| 3. | <i>Қозоқбой ЙЎЛДОШ.
“ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН” ДОСТОНИДА РУҲИЯТ ТАСВИРИ</i> | 48 |
| 4. | <i>Сувон МЕЛИ.
“ХАМСА”ДА МУАЛЛИФ “МЕН”И</i> | 57 |
| 5. | <i>Gulnar Agig JAFARZADE.
THE INFLUENCE OF RUMI ON ALISHER NAVAI'S PERSIAN RUBAIYAT</i> | 68 |
| 6. | <i>Münevver TEKCAN.
ALI SHIR NAVA'I'S IMPACT ON THE TIMURID RENAISSANCE</i> | 79 |
| 7. | <i>Сергей НИКАНОРОВ.
К ВОПРОСУ О ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЭПИТЕТОВ В СБОРНИКЕ “СОКОРОВИЩНИЦА МЫСЛЕЙ” АЛИШЕРА НАВОИ</i> | 90 |
| 8. | <i>Maқсуд АСАДОВ.
НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЖОД ВА ИЖОД АҲЛИ ТАЛҚИНИ</i> | 99 |
| 9. | <i>Шоира АҲМЕДОВА.
АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ МАКТУБЛАРИ ҲАҚИДА</i> | 107 |
| 10. | <i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, А. ЮСУПОВА.
ЕВРОПАДА РУМИЙШУНОСЛИК ВА СУЛТОН ВАЛАДНИНГ БҮЮК БРИТАНИЯДА САҚЛНААЁТГАН АСАРЛАРИ ХУСУСИДА</i> | 116 |

	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Айнур АНАПИНА.</i>	
11.	ӘДЕБІЕТТЕГІ ИНТЕРМӘТІНДІЛІК: АБАЙ ШЫҒАРМАЛАРЫНЫң ӘЛИШЕР НАУАЙМЕН САБАҚТАСТЫҒЫ	121
	<i>Сайфиддин РАФИДДИНОВ.</i>	
12.	НАВОЙ ВА РУМИЙ ИЖОДИННИҢ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ МАММОЛАРИ	128
	<i>Dilnavoz YUSUPOVA.</i>	
13.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAMARQAND TALQINI	137
	<i>Илхом ФАНИЕВ.</i>	
14.	ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ВА АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	146
	<i>Islamjon YAKUBOV.</i>	
15.	JALOLIDDIN RUMIY MEROSSI VA ZAMONAVIY O'ZBEK ROMANCHILIGI	153
	<i>Gulbahor ASHUROVA.</i>	
16.	TARIXIY SHAXS TASVIRI: NAVOIY OBRAZI	162
	<i>Qahramon TO'XSANOV, Muhammadamin JURAQULOV.</i>	
17.	RUMIY VA NAVOIY IJODIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI	170
	<i>Mahmadiyor ASADOV.</i>	
18.	HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY	
	<i>Sobit AVEZOV.</i>	
19.	BOQIYLIKKA DAXLDOR BITIKLAR	174
	<i>Адхамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
20.	АЛИШЕР НАВОЙИННИҢ ТУРКИЯЛИК ШОГИРДИ	182
	<i>Насиба БОЗОРОВА.</i>	
		187
21.	ХАЗРАТИ МАВЛОНОНОНИНГ "МАЖКОЛИСИ САБЪА" ("ЕТТИ МАЖЛИС") АСАРИДА НАЎТ	191
	<i>Yulduz ZIYAYEVA.</i>	
22.	"OSHIQ-MA'SHUQA-RAQIB" OBRAZI GENEZISI	198
	<i>Olmos XURRAMOV.</i>	
23.	ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD"DA TARIXIY HAQIQAT IFODASI	205
	<i>Hasamuddin HAMDARD.</i>	
24.	AMIR ALISHER NAVOIYNING HEROT MAKTABINING TUSHUNCHALARINI TEMURIYLAR SIYOSATIGA OTKAZISHDAGI ROLI	210

25.	<i>Leyla HƏSƏNOVA.</i> AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATINDA ROMANTİZM	220
26.	<i>Marifat RAJABOVA, Madina IBOTOVA.</i> RUMIY VƏ NAVOIY LIRİKASIDA KO'NGİL METAFORASI	226
27.	<i>Sherxon QORAYEV.</i> MAVLAVIY "GIRDİ DARVESHLAR" NING RAQSU SAMO' MAJLISLARI	231

**II SHO'BA
SHARQ ADABIYOTIDA POETIKA
MUAMMOLARI**

28.	<i>Улугбек ҲАМДАМ.</i> ГЛОБАЛ ДҮНӘДАГИ ЙҮЛЧИ ЮЛДУЗЛАР	244
29.	<i>Zafer TOPAK.</i> ALI ŞİR NEVÂYÎ'NİN TÜRKÇE DİVANLARINDAKİ ŞİİRLE İLGİLİ BENZETMELER VE BUNLARIN ŞAIRİN POETİKASINA KATKILARI	254
30.	<i>Gulnoz XALLIYEVA, Adiba MA'DIYEVA.</i> ZAMONAVIY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RIYATIDA BAHOR OBRAZINING BADIY TALQINI	266
31.	<i>Dilrabo QUVVATOVA.</i> MUMTOZ POETIKADA MASNAVIYGA OID QARASHLAR TALQINI	275
32.	<i>Вусала НАСИБОВА.</i> КОМПЛЕКС НОВРУЗОВСКИХ ОБРЯДОВ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	279
33.	<i>Диляра ХАЛИЛОВА.</i> К ВОПРОСУ О МЕЖКУЛЬТУРНОМ ПОТЕНЦIAЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НАВОИ И ПУШКИНА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	285
34.	<i>Orazbek MAQPAL, Әнуар ЗЕРДЕ.</i> НҮРЛАН МӘҮКЕНҰЛЫ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫ ЖӘНЕ АБАЙ ДӘСТУРИ	289
35.	<i>Olim OLТИНБЕК.</i> RAUF PARFI SHE'RLARINING VAZN XUSUSIYTLARI	297
36.	<i>Farhad RAHİMİ.</i> FERAĞÎ'NİN MİFTAHU'L-LÜGAT SÖZLÜĞÜNÜN DÜZENİ VE EL YAZMASI ÜZERİNE	312

37.	<i>Orzigel HAMROYEVA.</i> QOFIYAGA OID BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI	325
38.	<i>Ainisa AKMATOVA, Makhlie NAZAROVA</i> THE SPECIFIC PECULIARITIES OF THE IMAGE "WOMAN" IN THE EPIC MANAS AND IN ALISHER NOVOIY'S WORKS	333
39.	<i>Tojxi HOPOV.</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ БОРЛИҚ ФАЛСАФАСИДА КОСМОС, МАКОН ВА ЗАМОН ТАЛҚИНІ	341
40.	<i>Rustam SHARIPOV.</i> МАHMUDUXO'JA BEHBUDIY VA ABDURAUF FITRATNING MILLIY DAVLATCHILIK HAQIDAGI QARASHLARI	353
41.	<i>Feruza BURXANOVA.</i> BADIY SO'Z JILOSI	370
42.	<i>Ольга ЧИЖИКОВА, Ирина ЯНОВСКАЯ.</i> ЧЕРТЫ КОСМИЗМА В СТИХОТВОРЕНИИ НИКОЛАЯ КЛЮЕВА "БЕЛАЯ ИНДИЯ" И В НЕКОТОРЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ АВТОРОВ	377
43.	<i>Komiljon HAMROEV.</i> SHARQ NIKOYATLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI	386
44.	<i>Нилуфар УМАРОВА.</i> УЛЖАС СУЛАЙМОНОВ ШЕРЬИЯТИ	393
45.	<i>Zebiniso BEKMURADOVA.</i> PAREMIYADA XIAZM	399
46.	<i>Азамат ХАЙРУЛЛАЕВ.</i> НОРМУРОД НОРҚОБИЛОВ ҲИКОЯЛАРИДА ОНОМАСТИКА	404
47.	<i>Салават АЮПОВ.</i> ОТЗВУКИ РУССКОЙ КЛАССИКИ В ЧЕХОВСКОМ ЭТЮДЕ "БЕЗНАДЕЖНЫЙ"	422
48.	<i>پوھنیار امرالله محمدی</i> بررسی زبان شناسانه استعارة مفهومی عشق در اشعار فارسی نوابی <i>Tozagul MATYOQUBOVA.</i>	429
49.	<i>G'AFUR G'ULOM SHE'RİYATIDA LIRIK QAHRAMON VA KECHINMANING POETIK IFODASI</i>	437
50.	<i>Ирина ЯНОВСКАЯ, Ольга ЧИЖИКОВА.</i> СКУЛЬПТУРНЫЕ ОБРАЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.С.ПУШКИНА	445

	<i>Шоҳрат Нусрат МАМЕДОВА.</i>	
51.	ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ СЕМАНТИКА ДЕТСКИХ ДРАМ МИРВАРИД ДИЛЬБАЗИ	453
52.	<i>Umida ABDULLAYEVA. "SHAYX SAN'ON" QISSASIDA USTOZ-SHOGIRD MASALASI</i>	466
	<i>Yorqinoy NASIRDINOVA.</i>	
53.	ALISHER NAVOIY OBRAZI FRANSUZ ADABIY VA TARIXIY TAFAKKURIDA	470
54.	<i>Sayid Nurulloh AMINYOR. ALISHER NAVOIY MA'RIFATNING PORLOQ QUYOSHI</i>	478
55.	<i>Qatabek BABAYEV, Munisa BOLTAYEVA. ÜBERSETZUNGSMETHODE VON TECHNISCHEN TEXTEN</i>	491
	<i>Нуриддин УБАЙДУЛЛАЕВ.</i>	
56.	"ТАНАЗЗУЛ" РОМАНИДА МУСУЛМОНҚУЛ МИНГБОШИ ОБРАЗИ	496
57.	<i>Matluba MAMADIYAROVA. "ALPOMISH" VA "BEOVULF" EPOSALARIDA AYOL FENOMENI</i>	503
58.	<i>Mahbuba QARSHIYEVA. ALISHER NAVOIY: MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK</i>	508
	<i>Feruza SAPAYEVA.</i>	
59.	MAXTUMQULI ASARLARINING TURKIY TILLARDAGI TARJIMALARI VA ULARNING TADQIQI	514
60.	<i>Bahor SHUKUROVA. BADIY ADABIYOTDA RAMZIY OBRAZLAR TALQINI</i>	522
	<i>Nodira SAIDOVA.</i>	
61.	"NAVOIY VA ILOHIYOT"DA "GERMENEVTIK DOIRA" DAN FOYDALANISH	530
	<i>Sevinchoy YOQUBOVA.</i>	
62.	XX ASR BOSHLARI O'ZBEK SHE'RIYATINING YANGILANISH OMILLARI	534
	<i>Нибуфар ДИЛМУРОДОВА.</i>	
63.	АСАД ДИЛМУРОД ЭССЕЛАРИНИНГ ГЕНЕТИК АСОСЛАРИ, УЛАРДА МУАЛЛИФ ИФОДА УСЛУБИ ВА БАДИЙ- ЭСТЕТИК КОНЦЕПЦИЯСИ	541
	<i>Nodira XUDOYNAZAROVA.</i>	
64.	JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY JAHON ADABIYOTI KONTEKSTIDA	547

	<i>Maftuna NORQULOVA.</i>	
65.	"HALI HAYOT BOR..." QISSASIDA QAHRAMON KONSEPSIYASI	552
66.	<i>Dilnavoz BOYZOQOVA.</i> "YUSUF VA ZULAYHO" QISSASIDA OBRAZ TALQINI	560
67.	<i>Махфузахон ХОМИДОВА.</i> "БАДОЙИЙ УЛ-БИДОЯ"ДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	568

**III SHO'BA
NAVOIY VA RUMIY IJODIDA MA'RIFAT VA
MILLIYAT MASALALARI**

	<i>Nafas SHODMONOV.</i>	
68.	"LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI SYUJETI VA G'OYASINI SHAKLLANTIRGAN BA'ZI OMILLAR	578
69.	<i>DR. KEMAL YAVUZ ATAMAN.</i> OSMANLI DEVLETİ'NİN MANEVİ VE HAKİKİ MÜESSİSİ MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN-İ RÛMÎ	584
70.	<i>G'ayrat MURODOV, Shahlo SA'DULLAYEVA.</i> MURSHID VA MURID MUNOSABATI	592
71.	<i>Нұсратулло ЖУМАХҰЖА.</i> ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ "МАСНАВИЙ МА'НВАЙ" АСАРИНИНГ КИРИШ ҚИСМИ МАЗМУНИГА ЧИЗГИЛАР	602
72.	نویسنده: پروفیسور دکتر فضل الرحمن فقیهی هروی نقش امیر علیشیر نوابی در تمثیل‌آفرینی دوره تیموریان هرات	607
73.	<i>Darmonoy O'RAYEVA.</i> RUMIY VA HOZIRGI O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA DUNYO TA'RIFI	619
74.	<i>Ulkar BAKHSHIYEVA.</i> THE ARTISTIC-AETHETIC FEATURES OF THE MYTHOLOGICAL APPROACH IN NIZAMI GANJAVI'S POEM "ISKANDARNAMA" (IN THE CONTEXT OF LEGENDS RELATED TO KHIDR)	624
75.	شیر احمد قرداش صالح	634
76.	<i>Odiljon AVAZNAZAROV.</i> NAVOIY DOSTONLARIDA "QADAM" METAFORASI	642

	<i>Toji NOROV.</i>	
77.	ALISHER NAVOIY FALSAFIY MEROSINING ILOHIY-MA'RIFIY VA MAFKURAVIY ASOSLARI	649
78.	<i>Saodat MUMINOVA. AQL VA IDROK O'RTASIDAGI MUVOZANAT</i>	662
	<i>Мустафа БАЙЭШАНОВ.</i>	
79.	"ПЯТЕРИЦА" НАВОИ В СОКРОВИЩНИЦЕ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	667
80.	<i>زینب نوروز علی ؛ شاد محمد سهاب جایگاه عقل در اشعار امیر نظام الدین علیشیر نوابی</i>	671
	<i>Usmon QOBILOV.</i>	
81.	ON THE INTERPRETATION OF THE TRUE OF HUMANITY AND THE UNIVERSE IN ARTISTIC CREATIVITY	678
82.	<i>دکتر نورالرخمن ناصح انسان كامل و انسان شناسى از نظر على شير نوابى و مولانا با روپىكىد تېلىقى</i>	687
83.	<i>Адхамбек АЛИМБЕКОВ. АЛИШЕР НАВОЙ ҲАҚИДА ТУРК ДОСТОНИ</i>	693
	<i>Hamza ATEŞ, Kemal ATAMAN.</i>	
84.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA İJTIMOIY O'ZGARISHLAR	700
85.	<i>Мавжуда НУРИДДИНОВА, “БОР ҚИТОБИ, ЛЕК ПАЙГАМБАР ЭМАС...”</i>	710
86.	<i>Shohista NIYOZOVA. MILLIY QADRIYATNING TAMAL TOSHI</i>	720
87.	<i>Duygu KOCA. ALI ŞİR NEVÂYÎ'NİN ESERLERİNDEN AHLAKÎ DEĞERLER</i>	727
88.	<i>Iroda ISHONXANOVA. XX ASR 40-YILLARIDA NAVOIYSHUNOSLIK</i>	
89.	<i>Ойдин ТУРДИЕВА, Ойша ШУКУРОВА. РУМИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТИНЧЛИК ҒОЯСИ ТАЛҚИНИ</i>	734
90.	<i>Nargiza SHOALIYEVA. RUMIY VA NAVOINING ISHQQA OID QARASHLARI</i>	741
		747

**IV SHO'BA
NAVOIY VA RUMIY
YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA**

91.	<i>Malika SUYUNOVA.</i> HAMZA VA XALQ TEATRI	766
92.	<i>Laylo TO'YCHIYEVA.</i> "ULISS" ROMANIDA TRAGIK VAZIYAT XRONOTOPI	772
93.	<i>Nilufar HAITOVA.</i> HAMID OLIMJON – NAVOIYSHUNOS	
94.	<i>Shaxnoza TURSUNOVA.</i> SIZIF OBRAZI: TURFA TALQINLAR	777
95.	<i>Madina VAHODOVA.</i> "NAVOIY KIRMAGAN UYLAR QORONG'U"	781
96.	<i>Sayohat ARZIQULOVA.</i> FATMA SHENGIL SUZAR IJODIDA RUMIY AN'ANALARI	786
97.	<i>Osiyo SIDDIQOVA.</i> KOMIZM XÜSUSIDA BIR-IKKI SO'Z	794
98.	<i>To'lg'anoy QULJANOVA.</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA RUMIYONA OHANGLAR	
	<i>Sabinabonu BERDIYEVA.</i>	802
99.	"ADABIYOTSHUNOSLIK LUG'ATI" NING ELEKTRON MOBIL ILOVASINI YARATISH XUSUSIDA	810 815
100.	<i>Huriniso MENGLIYEVA.</i> DUNYONING AZALIY SAVDOSI	819
101.	<i>Баходир ЖОВЛИЕВ.</i> УНИВЕРСАЛ ОБРАЗЛАР КҮЛАМИ	825
102.	<i>Zilola JO'RAYEVA.</i> NAVOIY VA RUMIY ASARLARIDA TASAVVUF TIMSOLLARI	
103.	<i>Divora O'KTAMOVA.</i> ALISHER NAVOIY FARDLARINING O'RGANILISHI	829
	<i>Hediye Zeynep KÖŞEK.</i>	834
104.	ALI ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN RUMÎ'NİN ESERLERİNDE TAKVÂ	839
	<i>Selenay SAHİN.</i>	
105.	ALI ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ'NIN SANATSAL VE DÜŞÜNSEL YAKLAŞIMLARININ MİMARİ ESERLER ÜZERİNDEKİ ETKİSİ: SOSYO-KÜLTÜREL BİR DEĞERLENDİRME	849

	<i>Nodirjon G'AFUROV, Shahnoza YO'L DOSHEVA.</i>	
106.	NAVOIY "XAMSA"SI VA RUMIY "NAYNOMA"SIDA "NAY" TIMSOLI	856
107.	<i>Noila ROXATALIYEVA.</i> "DEVONA" VA "JUNUN" TUSHUNCHALARI TALQINI	861
	<i>Sema DÜLGAR.</i>	
108.	ŞAİR FÂTIMA HANIM VE KÜTAHYA MEVLEVÎHÂNESİNE ETKİLERİ	866
	<i>İrem ERDEM.</i>	
109.	ALÌ ŞIR NEVAÎ'NİN MUHAKEMETÜ'L-LUĞATEYN ADLI ESERİNDE EŞANLamlılık	872
	<i>Dilfuza ISMOILOVA.</i>	
110.	"BIR AYOL HAYOTIDAN 24 SOAT" NOVELLASINING KOMPOZITSION TAHLLİLİ	881
111.	<i>Beyza ÖZER.</i> MËKANDAN LÂMEKÂNA: ALÌ ŞIR NEVAÎ VE MEVLÂNÂ	888
	<i>Ahmet Berat COŞKUN.</i>	
112.	MUHÂKEMETÜ'L-LUGATEYN'DE GEÇEN İŞ/HAREKET BİLDİREN FIILLER VE BU FIILLERİN KUZEYBATI/KIPÇAK TÜRK LEHÇELERİNDEKİ GÖRÜNÜMLERİ	897
113.	<i>Aziz NORQULOV.</i> "NASOYIM" PINJIDAGI UMR	910
114.	<i>Saodat FAYZIYEVA.</i> JADID MATBUOTIDA NAVOIY IJODI TADQIQI	916
115.	<i>Jobir ISMATILLOYEV.</i> MUNIS IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI	
116.	<i>Dovud XO'JAQULOV.</i> NAVOIY VA RUMIY IJODIDA SABR TUSHUNCHASI	924
117.	<i>Nazokat G'OFUROVA.</i> BILGAMISH - BUYUK SHARQNING QADIM DURDONASI	930
	<i>Nargiza SHAMIYEVA, Jazira TULEGENOVA,</i>	
	<i>Nargiza XOLBOBOYEVA.</i>	934
118.	COMPARATIVE STUDY OF MEANING EXPANSION AND NARROWING OF QUALITATIVE ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK	938
119.	<i>Go'zal OMONOVA.</i> JALOLIDDIN RUMIY HIKOYALARIDA XULQ-ATVOR MASALASI	944
120.	<i>Madina TURSUNOVA.</i> MARLO VA SHEKSPIR: IJODIY PARALLELLAR VA FARQLAR	949

	<i>Shodiya TURSUNALIYEVA.</i>	
121.	"ABU RAYHON BERUNIY" DRAMASIDA FOJIAVIY VAZIYATLAR TALQINI	952
	<i>Gulzoda SAFAROVA.</i>	
122.	ERKIN A'ZAMNING "ANOYINING JAYDARI OLMASI"	957
	HIKOYASIDA IDILLIYAVIYLIK	
	<i>Nozima KARIMOVA.</i>	
123.	YOVUZ BAHODIR O'G'LINING "YONAYOTGAN BUXORO"	964
	ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT	
	<i>Suhrobjon ZIYODOV.</i>	
124.	YOSHLAR SHE'RIYATIDA NAVOIYGA MUROJAAT	970
	<i>Sherzod USMONOV.</i>	
125.	ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA METAFORIK OBRAZLAR	977
	<i>Narmin BABAева.</i>	
126.	ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ СЕМАНТИКА МИФОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ	983
	<i>Yüsra KARACA.</i>	
127.	HZ. MEVLANA'NIN YOLU VE HAT SANATI	993
	<i>Lobar BERDIYEVA.</i>	
128.	SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA RAMZIYLIK	999
	<i>Gulsevar MAMANOVA.</i>	
129.	"YUSUF VA ZULAYHO": GENEZIS MASALASI	
	<i>Shahzoda VALIJONOVA.</i>	1006
130.	NAVOIY E'TIROF ETGAN XAMSANAVIS	
	<i>Dilrabo HAYDAROVA.</i>	
131.	O'ZBEK-TURK HIKOYALARIDA KOMIKLIK	1014
	<i>Saida DAVRONOVA.</i>	
		1018
132.	ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING O'ZBEKİSTON KİNOFOTOFONO MILLİY ARXIVI HUJJATLARIDA YORİTİLİŞİ	1022
	<i>Mirjalol SODIQOV.</i>	
133.	"BUYUKLAR TUHFASI" - MUMTOZ ADABIYOT TARIXIGA DOİR TADQIQOT	1029
	<i>Muhabayo İSTAMOVA.</i>	
134.	AYOL OBRAZI JOZIBASI	1036
	<i>Iroda ESHMURADOVA.</i>	
135.	YANGI DARSLIKLAR HAQIDA	1041

136.	<i>Ruxsora UNAROVA</i> AHMAD A'ZAM HIKOYALARIDA "JUMBOQ" TASVIRI	1048
137.	<i>Maftuna USMONOVA</i> NAVOIYDA "SHOH" VA "GADO" TUSHUNCHALARI TALQINI	1052
138.	<i>Nigora TOSHMURODOVA</i> FURQAT VA MA'RIFATPARVARLIK G'OYASI SHARIF YUSUPOV TALQINIDA	1057
139.	<i>Muxlisa ASHIRMATOVA</i> NAVOIY VA RUMIY: MUSHTARAK DIDAKTIKA	1068
140.	<i>Dilnavoz NAJIMOVA</i> MUMTOZ TURKIY ADABIYOTNI BOLALAR ONGIGA YETKAZISH AMALIYOTIGA DOIR	1074
141.	<i>Parvina NARZULLOYEVA</i> XAMSA DOSTONLARIDA UCHRASHUV MOTIVINING O'RNI	1083
142.	<i>Roza QURBONOVA</i> NAVOIY VA RUMIY ADABIY MEROSINING BOSHQA TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI	1090
143.	<i>Nigina FAYZULLAYEVA</i> A.S.PUSHKIN VA F.M.DOSTOYEVSKIY ROMANLARIDA EPISTOLYAR JANRNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI	1097
144.	<i>Ayşe ÖZTOKLU, Sümeyye ÇAĞLAR YILMAZ</i> MEVLÂNÂ CELÂLEDDÎN RÛMÎ'NİN MESNEVİ'SİNDE Hz. MUSA KISSASINDAN KESİTLER	1104

Dilnavoz BOYZOQOVA,

ToshDO'TAU o'qituvchisi

Doi.10.52773/tsuull.conf.2025/KXKF7077

"YUSUF VA ZULAYHO" QISSASIDA OBRAZ TALQINI

Annotatsiya: Mazkur maqolada hazrati Yusuf alayhissalom hayotlarining mumtoz adabiyotda obraz sifatida talqin etilishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Motiv, qissa-doston, nabiy, ramz, go'zallik, tush.

Annotation. This article examines the interpretation of the life of Prophet Yusuf (peace be upon him) as a figure in classical literature.

Keywords: Motive, story-epic, prophetic, symbol, beauty, dream.

O'zbek mumtoz adabiyotida payg'ambarlar tarixini yoritish masalasi, bir an'anaga aylanib ulgurgan desak yanglishmaymiz. Payg'ambarlarning sochma obrazlari, ular hayotining turli ko'rinishdagi syujetlari nafaqat xamsanavislikda, qissa-dostonlar hamda doston-qissalarda (folklorda), she'riyatda, bir qancha nasriy asarlarda va h.k. muhim manba bo'lib xizmat qildi. Doston-qissa bu bir-nechta qissalarni o'zida jamlagan dostonlrdir. Qissa-doston esa ma'lum bir qahramonlar hayoti syujeti asosidagi qissa bo'lib, bunga "Gul va Navro'z", "Bahrom va Gulandon" dostonlari misol bo'ladi. Mumtoz qissalar qahramonlari komil shaxslar – payg'ambarlar, siddiqlar, avliyo-hakimlar haqida bo'lgani ko'proq xos kishilar adabiyotiga aylangan. Payg'ambarlar, jumladan, Hazrati Yusuf Siddiq, alayhis-salom nomi bilan bog'liq voqealar tizmasi ham ana shunday qissa-doston yo'naliishiga mansubligi bilan ahamiyatlidir. Darhaqiqat, alohida bir syujetning muayyan badiiy adabiyotdagi tarixiy tadrijini o'rganish g'oyat qiziqrarli ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi. Shu jihatdan qaraganda, Yusuf va Zulayho nomlari bilan bog'liq ishqiy-maishiy sarguzashtlar ayricha mohiyat kasb etadi.

Jahon xalqlari og'zaki va yozma adabiyotida Rabg'uziygacha, undan keyin ham Yusuf mavzusiga qayta va qayta murojaat qilish an'anaga aylangan. Sayyor syujet maqomini olgan Yusuf-u Zulayhoning ishqiy-maishiy sarguzashtlari mavzusida gurji, hindu, olmon, latish va boshqa adabiyotlarning Taymuraziy

I., Shota Rustaveli, Nosir Fozipur, Tomas Man va Yan Raynis kabi ulug' namoyondalari asarlarining bitilishiga asos bo'lgan. Turkman adabiyotshunosi Geldi Nazarovning aniqlashicha, shu syujetda IX asrdan – XX asrgacha o'tgan davr ichida arab, forstojik, turkiy, panjob, pushtu, hindu, gurji, afg'on, olmon, latish tillarida 118 ta asar yozilgan. Biroq bu ro'yhatni ham tugal sanash qiyin. Negaki, hali unga kirmay qolgan asarlar ancha. Jumladadan, biz ham o'z kuzatishlarimiz jarayonida bu ro'yhatda ifodasini topmagan yana XIV asarni aniqlashga tuyassar bo'ldik. Tabiiyki, bizdan keyingi tadqiqotchilar ham mazkur ro'yhatni yanada to'ldirish va boyitish borasida o'z hissalarini qo'shishlari mumkin. Xullas, Yusuf va Zulayho mavzusida xalq ertaklari va qissalari ham inobatga olingudek bo'lsa, bugungi kunda yuz ellikdan ortiq asar yaratilganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Hazrati Yaqub, Yusuf alayhis-salom, Zulayho nomi bilan bog'liq voqealar qanchalik keng tarqalgan bolsa, bu mavzuda asar yaratilgan adabiyotlardagi tadqiqotchilar ham shu qadar ko'pdir. O'quvchilar hukmiga havola qilingan ilmiy, ilmiy-ommabop maqola-yu risolalar saviyasining bir xil emasligi shubha uyg'otmaydi. Ammo bir mavzuda shu qadar ko'p ish yozilganligining o'zi mavzuning qiziqarli va dolzarb ekanligidan shahodat beradi. Bu jihatdan ayniqla, E.E.Bertels, A.Mirzayev, A.Qayumov, B.Valixo'jayev, A.Nasriddinov, A.G.Tohirjonov, E.Ibrohimova, A.Zuhiriddinov, S.Amirqulov, A.Irisov, X.Rasulov, S.Haydarov, J.Lapasov, X.Islomov, Q.Tohirov, G.Nazarov, M.B.Rudenko, D.Almaz, N.SH.Xisamov, Dilijon, A.A.Gvaxariya, G.A.Gorbatkina va boshqa mualliflarning tadqiqotlari alohida e'tiborga molikdir.

Yusuf va Zulayho ishqiy sarguzashti haqidagi syujetning tarixi arab va yahudiy xalqlarining qadimiyligi og'zaki ijodiga borib taqalsada, uni faqat shu xalqlarning qadimiyligi og'zaki ijodigagina bog'lab ko'rsatish bir tomonlamalik bo'lur edi. Chunki boshqa xalqlar og'zaki ijodida ham Yusuf va Zulayho mavzusidagi afsona, rivoyat va ertaklar uchraydi. Chunonchi, tatar olimlari Yusuf va Zulayho mavzusidagi ayrim lavhalarning ma'nnaviy ildizlarini Vavilonda yaratilgan (eramizdan avvalgi 3-4 mingyllik) Tamuza va Ishtar, siro-finikiyaliklar ijodiga daxldor (eramizdan avvalgi 2 ming yil oldin) Adonis va Astrata, misrliklarning Osiris va Isida miflariga

ulanishiga ishora qilishadi. Shuningdek, qadimgi Sharq xalqlari folklarida ham o'simlik, hosil, don xudosi bo'lgan qahri qattiq yigitni rashkchi Ma'buda sevib qolishi va uni ta'qib qilishi haqidagi afsona mavjud.

Yusuf va Zulayho haqidagi afsona dastlab muqaddas diniy kitoblar tarkibidan o'rin olgan. Muqaddas kitoblar esa ikki qismga – Qadimgi Ahd va Yangi Ahdga bo'lingan. Qadimgi Ahd – Tavrot va Zabur, Yangi ahd – Injil deb yuritilgan.

Tavrot va Injil qadimgi yahudiy (ibroniy) tilida yaratilgan bo'lib, Hazrati Masih tug'ilguniga qadar bitilgan. Injil qadimgi grek (yunon) tilida bo'lib, Iso Masih tug'ilgandan keyin shakllangan.

Yusuf haqidagi qissa ilk bor Tavrotning "Ibtido" nomli birinchi kitobida keltirilgan. O'sha qissaning syujeti ham Qur'ondag'i qissaga uyqash bo'lib, Ya'qub alayhissalomning 12 ta o'g'li bo'lishi, Ota hamma farzandlaridan Yusufni ko'proq yaxshi ko'rishi kabi voqealardan boshlanadi".

Ming yillar davomida jahon so'z san'ati tarixida adabiy an'anaga aylangan noyob hodisalardan biri mavzular sayyorligi hisoblanadi. Katta ma'naviy- badiiy ahamiyatga molik asarlar bir xalq adabiyoti doirasida qolib ketmay, qo'shni va qardosh ellar badiiy so'z mulkidan munosib joy olib, ularga ham zavq-u shavq bag'ishlab kelmoqda. Sharq xalqlari adabiyoti tarixida "Yusuf va Zulayho", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Vomiq va Uzro", "Tohir va Zuhra", "Vis va Romin", "Gulu bulbul", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Bahrom va Gulandom", "Mehr va Suhayl" kabi nodir durdonalarning xilmal xil na'munalari vujudga keldi. Shunisi quvonchlik, sanab o'tilgan sayyor voqealarning ayrimlari asosida o'nlab, hatto yuzlab asarlar yaratilgan. Turk adabiyotshunosi Ogah Sirri Levend guvohlik berishicha, arab, fors, turk tillarida Layli-yu Majnunlarning sevgisi sarguzashti haqida yuz ellikdan ziyod masnaviy yaratilgan. Ishimizning oldingi sahifalarida qayd qilganimizdek, turkman adabiyotshunosi Geldi Nazarov Ya'qub, Yusuf, Zulayho nomlari bilan bog'liq voqealar tizmasi zaminida vujudga kelgan bir yuzu o'n sakkiz dostonni aniqladi. Mazkur ro'yhatda biz aniqlagan o'n to'rt asar ham o'z aksini topgan.

Rabg'uziygacha Yusuf va Zulayho mavzusidagi ilk nasriy asar Abu Ali ibn Sino tomonidan yaratilganiga qaramay, bu asar uzoq

yillar sinoshunoslikda noma'lum bo'lib keldi. Chunki asar buyuk mutafakkirning "Xutba at-tasliya" ("Tasalli beruvchu xutba") kitobi tarkibida, "Salomon va Ibsol" qissasidan keyin unga ulangan holda berilgan bo'lib, alohida nom bilan ajratilmaganligidan shunday ishtiboh sodir bo'lgan ko'rindi. Buni sharqshunos A.Irisov shunday izohlaydi: "Ibn Sinoning "Yusuf qissasi" "Salomon va Ibsol" qissasiga ularib ketilgan. Asar boshida xutbaga xos kirish, Xudoga qarata yozilgan maqtovlardan so'ng "Salomon va Ibsol" qissasi yozilgan va bu qissa tugagach satr davomida (hatto yangi satrdan ham emas), "Yusuf qissasi" boshlanadi. Avvalgi qissa tugashi bilan yangi qissaning boshlanishi orasida "va laqad" arabcha iborasigina bo'lib, u ikki qissani bir-biridan go'yo ajratib turadi.

Demak, bu asarni ko'chiruvchi kotib har xil syujetli bu ikki qissaning bir xutbaga kiritilganligining uchun ularni bir asar deb bilgan va yangi asar boshlanishida yoziladigan "bismillo"ni ham qisqartirib ketgan.

O'zbek mumtoz adabiyoti uchun ilohiy manbalar: Qur'oni Karim, Hadisi Sharif ilhom manbai bo'lib kelganidek, bu manbalar bevosita nubuvvat ma'rifati uchun ham ilk manba hisoblanadi. Garchi Zabur, Tavrot, Injil kabi muqaddas kitoblar ham nubuvvat mahsuli bo'lsada, biroq bu ta'limotning mukammal ifodasi islom orqali namoyon bo'ladi va u o'zbek mumtoz adabiyoti uchun bevosita sarchashma sanaladi. Shu nuqtai nazardan, kitobda nubuvvat ta'limoti mumtoz asarlar yetakchi tomonlaridan ekanligi, uning ta'sirida badiiy qissalar va obraz-timsollar turkumi vujudga kelganligi asoslanadi, "Qissas-ul anbiyo"lar donishmand Sharq mahsuli sifatida mohiyat e'tibori bilan umuminsoniy madaniyat na'munasi hisoblanishi, ularning mumtoz she'riyat badiiy obraz va timsollar olami manbaiga aylanganligi ochib beriladi. O'zbek mumtoz adabiyotida nubuvvat qissalari syujeti va obrazlari talqinida xilma-xil janriy shakllar istifoda etilganligi, nubuvvat tayhiddan keyin va valoyatdan oldingi maqom bo'lib, mumtoz badiiy ijod uchun ilhom manbai bo'lib kelganligi, tasavvuf va mumtoz adabiyot uchun nubuvvat ma'rifati badiiy-estetik tafakkur maydoni ekanligi, o'zbek adabiyotida nubuvvat ma'rifati va obrazlari talqiniga xos alohida hamda qorishiq adabiy janrlar shakllanganligi, o'zbek mumtoz she'riyatida nubuvvat timsol-obrazlari teran poetik manzaralar hosil etganligi,

mumtoz badiiy matnlarni yangi tahlil metodlari asosida yoritish va ilmiy-filologik tahlilda poetik obraz manbalari muhim ekanligi isbotlanadi. Nubuvvat haqiqati talqinlari adabiyotshunoslikda yangicha tushuncha va detallar paydo bo'lishida, badiiy asar syujeti, kompozisiyasi, obraz-timsollari hamda badiiy-estetik qarashlar olami boyishida muhim o'rinni tutadi. O'zbek mumtoz adabiyotini yangicha tadqiq etishda, nubuvvat va adabiyot masalalariga doir ilmiy tadqiqotlar olib borishda, mumtoz nasr va she'riyat poetikasini teran idrok etishda mazkur tadqiqotning amaliy-nazariy ahamiyati kattadir. U o'zbek mumtoz adabiyotining ilohiy-irfoniy xarakterini namoyon etadi, adabiy-estetik qarashlarda o'ziga xos talqinlar yuzaga keladi, tadqiqot tahlil usullari va manbalari mumtoz adabiyot hamda she'riyat poetikasiga bag'ishlangan ilmiy ishlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Manbalarda keltirilishicha, nubuvvat tushunchasi ko'p ma'nolarga ega va o'zida ko'lamdor ifodalarni aks ettiradi. Nubuvvat qadimgi ivriy-arab tillarida bir necha asosdan iboratligi kelib chiqadi. U dastlab "nab'un" – xabar, "nabva" (nubuv) – yuksalish, "nabi" – payg'ambar ma'nolarini bildiradi. Shu ma'noda "nab'un" – Haqdan yuborilgan "muqaddas so'zlar", "nabva" – samoviy yuksaklik, "nabi" – "xabarchi" ma'nosini anglatadi. Ko'rindiki, "ilohiy xabar", "vahy", "nuzul" bu tushunchaning birlamchi ma'nosidir. Qur'oni Karimning qayta tirilish, Qiyomat, ajr haqida xabar beruvchi alohida bir surasi ham "Naba" deb yuritiladi.

Yusuf (a.s.) qissasi Qur'oni karimdagagi qissalarning eng go'zali bo'lib, u kishining shonli va sharafli hayot yo'llari bir necha turkum syujetlarga asos bo'ldi. Adabiyot olamida yusuf turkumidagi necha-necha dostonlar bonyod bo'lib, u kishining tengsiz go'zalliklari hamda shunga muvofiq xulqlari tillarda ash'or bo'ldi. Navoiy ham bu xususda to'xtalib, nasrda ham nazmda ham ko'pchilik uning sharhini tuzganini, jumaladan, Firdavsiy Tusiy, hazrat Abdurohman Al-Jomiy, yana Xoja Mas'ud Iroqiy ham nazm qilib balog'atning dodin beribtur, deya e'tirof etadi. Barcha odamlar jinsidan go'zalroq ekanini ko'rgan Yusuf (a.s.) g'ururga ketdilar va agar men qul bo'lsam edi, mening bahoyimni kim ham bera olardi, deya hayollaridan o'tqazdilar. Har narsani eshituvchi, biluvchi, o'xshashi va tengi yo'q Haq taolo shunday qildiki, savdogarlar uni

atigi o'n yetti dirhamga sotib yubordilar. Buning sababi shu ediki, bir kuni Yusuf (a.s.) tush ko'rgan edilarki, unda quyosh, oy va o'n bir yulduz u kishiga sajda qilib turar edi. Tushini otasi Ya'qub (a.s.) ga aytganlarida bu tushni ta'rifi yuksak ekani, uni hammadan sir tutishi lozimligini uqtirdilar. Tush ta'biriga muvofiq Yusuf (a.s.)ni ulkan darajalar kitayotgan edi. Bundan xabar topib qolgan o'gay aka ukalar esa, hasaddan o'z inilariga yomonlikni iroda qilishdi. Adabiyotimizda asosiy ishqiy syujetga aylangan Zulayho bilan bo'lgan voqealar u kishining akalari tomonidan chohga tashlab yuborilishlari, shundan so'ng qul qilib sotilgan Yusuf (a.s.) Misr azizi bo'lgan Malik Rayon qo'liga kelib tushishlaridan boshlanadi. Azizning xotini Zulayho Yusufga shunchalik oshiq bo'ldiki, uning jununida 17 yoshlik Yusuf (a.s.)ga ishqini oshkor qildi, boshqaning nikohida bo'lgan ayolga mayl bildirishdan bosh tortgan Yusuf (a.s.) esa zindonga solindilar. Zulayho o'z ishqida chorasisz qolgani ayollarni yig'ib qo'llariga pichoq berib Yusufni ularga ko'rsatganida uni jamolidan lol qolgan xotinlar hatto qo'llarini kesib olganlarini sezmay qolganliklari, Yaratganning ushbu bandasiga oshiq bo'lmay chora yo'qligi asarda keltirilib, Qur'onи karimda ayni iqtibos borligiga ishora qilinadi. Ammo bu narsalar bir martagina o'z husniga masrur bo'lgan, undan yetarlicha dakki olgan solih Yusuf (a.s.)ni zarracha gunoh qilishga, yana g'ururga berilishga sabab bo'lmadi. Aksincha u kishi zinodan ko'ra o'zlariga qamoqni afzal bildilar. Bu hikoyat o'zidan faxr tuygan har bir inson uchun katta o'rnak manbasi bo'lib, go'zallikda barchadan ustun bo'lgan payg'ambar ham o'zini hamisha Xoliqning oldida, uning Jamoli, qudrati oldida hech kim emasligini e'tirof etgani holda amallari hamisha Yaratganga qullikdan o'zga narsa emasligini anglab, haq yo'lida sobit turganini o'qigan o'quvchi uchun hayot yo'lida bu qissa dasturulamal bo'lishi mumkinligi turgan gapdir. Yusuf (a.s.) Zulayhoning menga tajavuz qilmoqchi bo'ldi degan tuxmati bilan qamoqqa tushgach, Haq taolo unga ta'bir ilmini ato etdi. U qamoqda turib Malik Rayonning suvchisi ko'rgan tushini ta'bir etib, uning yaqinda qamoqdan chiqishini agar chiqsa Yusufni xojasiga eslatishini, uni ham qamoqdan chiqarishni so'rashini tayinladi. Ammo ana shu nuqtada biz uchin ham kerakli, ibratlil hodisa bo'ldiki, Yusuf (a.s.) zindondan chiqish uchun Yaratgandan

emas, oddiy yaratilmishdan madad so'radi. Shu xatosi evaziga u yana uillar davomida qamoqda qolib ketdi. Bir kuni Malik Rayon tush ko'rdi, tushida yetti semiz qo'yni yetti oriq qo'y yedi, yettita toza donli xashakni yettita quruq poya chirmashib barbod qildi. Bu tush ta'birini na ta'birchilar, na kohinlar ayta oldilar. Ana shu voqeadan keyingina suvchining esiga Yusuf (a.s.) tushdiyu, bu tushning ta'birini zindondagi Yusufdan boshqa hech kim qilolmasligini azizga xabar berdi. Yusuf (a.s.) ayttiki, semiz qo'ylar, toza xashaklar to'qlikka, ziroatlik yilga dalil bo'ladi va oriq qo'ylar va quruq xashaklar qahatchlilikka dalildir. Yetti yil mo'lchilik, ketidan yetti yil qahatchilik bo'lishini, to'kinlik davrida osh nonni qahatchilik uchun asrab qo'yishlikni taynladi. Shu tush ta'biridan so'ng Zulayhoning aybini tan olishi, Yusufga tuxmat bo'lgani oshkor bo'lib, Yusuf (a.s.) qamoqdan chiqarildilar hatto Misr aziziga aylandilar. O'ttiz ikki yoshlari eridan taloq olgan Zulayhoga uylandilar, Misrni qahatchilikdan asrab qoldilar. Zulayhodan ikki o'g'il ko'rdilar. Bu davrda atrofda qahatchilikdan qiynalgan xalqlar Yusuf (a.s.)dan don dun so'rab kela boshladi. Rizq qidirib chiqqan Yusufning akalari ham Misrga bish urib keldilar, ular bilan kelgan o'z inisi Ibn Yaminni hiyla bilan yonida olib qolgan Yusuf (a.s.)ga o'g'lini qo'yib yuborish iltimosi bitilgan bir xat keldi. Otasi Ya'qubning xatiga javob yozgan Yusuf (a.s.) xatini ko'rgan Ya'qub (a.s.) bu maktubdan anbiyo so'zi va rasullargagina holat anglayotganini sezgan ota yana o'g'illarini Yusuf huzuriga jo'natdi. O'z ko'ylagini akasi Yaxudodan berib yuborganligi tufayli otaning ko'r bo'lib qolgan ko'zлari ochildi va barchalari ota-onasini akalar Misrga Yusuf (a.s.) qoshiga ketdilar. Yusufni tanigach ota bolalar diydor ko'rishdilar. Yusuf (a.s.) ota-onasini taxt ustiga o'ltirtirib, o'zi ular yonida o'ltirdi, akalar va boshqalar Yusuf (a.s.) ga hurmatdan sajda qildilar. Yusuf (a.s.) ularga hurmat ko'rsatib o'z tushining ta'biri amalga oshganini otasiga izhor qildi. (Va Yusuf (a.s.) Ya'qub (a.s.)ga ayttikim: "Ey otajon, mana shu ilgari ko'rgan tushimning ta'biridir" ("Yusuf", 100) 126-b.)

Bu qissadan o'quvchi har bir ish hikmat bilan bo'lishini, akalari yomonliklar qilganda ham ularga halimlik va ikrom ko'rsatgan Yusuf (a.s.) singari hamisha haq yo'lidan toyilmay yurish kerakligini ibrat oladi hamda qayg'u va sinovlar girdobida qolgan inson bu

qissani o'qib o'ziga kuch va yo'l yo'riq olishi mumkinligini Navoiy quyidagi hikmati bilan ifoda etadi:

*Bordi Yusuf, qolmasdi Qobus ham bo'lmay adam,
Ichtilar jomi fano siddiq ham, zindiq ham.*

Adabiyotlar

1. Qur'oni Karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri (tarjima va tafsir muallifi A.Mansur). – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2009.
2. Эркинов А.С. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV-XX аср манбалари: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1998.
3. Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. – Тошкент: TURON-IQBOL, 2017.
4. <https://www.alishernavoiy.uz>